



“TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH” STRATEGIYALARI

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI



**Buxoro shahar
2026 yil**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI
KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI
MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI**

**respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2026-yil, 18-iyun

Buxoro – 2026

2. P. Po‘latov Inklyuziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent: Fan, 2018. - 215 b.
3. D. Nurkeldiyeva Inklyuziv ta’limda korreksion-pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 240 b.
4. Hallahan D.P., Kauffman J.M., Pullen P.C. Exceptional Learners: An Introduction to Special Education. - Boston: Pearson Education, 2019. - 720 p.
5. Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 426-428.
6. Karimova Zulfiya Abdurakhmanovna. (2026). Technologies For Preparing Future Special Educators To Develop Students’ Perceptual Skills In Inclusive Education. Oscar Journal of IJP, 6(05), 326–331. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume06Issue05-74>
7. Karimova, Z. (2026). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ALOHIDA TA’LIM ENTIYOJI BOLALAR BILAN KORREKTSION-TA’LIM VA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH. International Online Multidisciplinary Conference, 385–387. Retrieved from <https://tezislar.uz/index.php/iomc/article/view/381>
8. Каримова, З. (2026). РАЗВИТИЕ ПЕРЦЕПТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЕ. In ZDIF (Vol. 5, Number 1, pp. 45–47). Zenodo.

Xaytova Farida Kuchkarovna
SamDPI “Pedagogika” kafedrası assistenti

KO‘ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARINI KORREKSIYALASHDA SENSO-MOTOR O‘YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda senso-motor o‘yinlarning ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko‘rish nuqsoniga ega bolalarning nutq rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar, uchraydigan fonetik, leksik va kommunikativ qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etishda senso-motor faoliyatning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sezgi organlari va harakat faoliyatini uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlarning nutqiy faollikni oshirish, lug‘at boyligini kengaytirish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari senso-motor o‘yinlardan tizimli foydalanish ko‘zi ojiz bolalarda nutqiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz bolalar, nutq kamchiliklari, korreksion pedagogika, senso-motor o‘yinlar, nutq rivojlanishi, kommunikativ kompetensiya, sensor rivojlanish, motorika, logopedik ishlar, inklyuziv ta’lim.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение сенсомоторных игр в коррекции речевых нарушений у незрячих детей. Анализируются особенности речевого развития детей с нарушением зрения, наиболее распространённые фонетические, лексические и коммуникативные трудности, а также возможности их преодоления посредством сенсомоторной деятельности. Особое внимание уделяется играм, направленным на комплексное развитие сенсорных процессов и двигательной активности, способствующим повышению речевой активности, расширению словарного запаса и формированию коммуникативных навыков. Результаты исследования подтверждают эффективность систематического использования сенсомоторных игр в процессе коррекции речевых нарушений у незрячих детей.

Ключевые слова: незрячие дети, речевые нарушения, коррекционная педагогика, сенсомоторные игры, речевое развитие, коммуникативная компетентность, сенсорное развитие, моторика, логопедическая работа, инклюзивное образование.

Abstract. This article examines the importance of sensorimotor games in correcting speech disorders in visually impaired and blind children. The study analyzes the specific characteristics of

speech development in children with visual impairments, common phonetic, lexical, and communicative difficulties, and the role of sensorimotor activities in overcoming these challenges. Particular attention is given to games aimed at the integrated development of sensory perception and motor skills, which contribute to increased speech activity, vocabulary enrichment, and the formation of communicative abilities. The findings demonstrate that the systematic use of sensorimotor games is an effective tool for enhancing speech correction and overall language development in blind children.

Key words: blind children, speech disorders, corrective pedagogy, sensorimotor games, speech development, communicative competence, sensory development, motor skills, speech therapy, inclusive education.

Ushbu maqola ko'zi ojiz bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ulardagi individual psixologik-pedagogik va jismoniy imkoniyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar va ularning pedagogik-psixologik hamda didaktik jihatlarini yoritilgan va ta'limiy o'yinlar keltirilgan.

Zamonaviy maxsus pedagogika va tiflopedagogika fanlarida ko'zi ojiz bolalar nutqining rivojlanishi muammosi dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ko'zi ojiz bolalarda nutq rivojlanishi umumiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Garchi "Tiflopedagogika" atamasi zamonaviy bo'lsada, uning g'oyaviy-pedagogik ildizlari sharq mutafakkirlari asarlarida mujasam bo'lib, hozirgi kunda bolalar ta'lim-tarbiyasining mexanizmi ushbu manbalarga tayanadi.

Ko'zi ojiz bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ulardagi individual psixologik-pedagogik va jismoniy imkoniyatlarni hisobga olish talab etiladi. Bu borada Sh.E.Toxtiyarova ta'limning universal dizaynidan foydalanish (TUD) – ushbu yondashuvning individual xususiyatlaridan qat'iy nazar. Barcha o'quvchilar uchun qulay va tushunarli metodlarni: differensial ko'rsatmalarni qo'llash, kollaborativ yondashuv, xulq-atvorni boshqarish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishni o'z izlanishida keltirib o'tgan. 'O'zbekiston-2030' taraqqiyot strategiyasiga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, yoshlar ta'limi, kasb-hunar egallashi, til o'rganish, raqobatbardosh kadr bo'lishlari mamlakat kelajagini belgilabgina qolmay balki, uni dunyo hamjamiyatida nufuzini turli sohalarda yuksaklarga olib chiqadi.

Ko'rishida nuqsoni bor bolalar atrof-muhitdagi buyum va hodisalar haqida yetarli ma'lumot olmaydilar. Sensor ma'lumotlarning to'liq emasligi kognitiv va aqliy rivojlanishga, buyumlar haqida adekvat tasavvurlarning shakllanishiga, nutq o'sishiga, lug'at boyligiga va muloqot qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, ko'rishida nuqsoni bor bolalarda eshitish, hid bilish va sezgi qobiliyati ko'zi ochiq bolalarga qaraganda avtomatik ravishda yuqori bo'ladi, degan yanglish fikrlar uchraydi. Afsuski, unday emas. Aksincha, kattalar tomonidan maxsus tashkil etilgan o'yinlar va mashqlarsiz, bu bolalar saqlanib qolgan sezgi a'zolari orqali kelayotgan ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli, erta bolalikdan boshlab ko'rishida nuqsoni bor bolaning sezgi a'zolarini mashq qildirish zarur. Mashhur pedagog V.A. Suxomlinskiy aytganidek: "Bolaning aqli uning barmoq uchlaridadir". Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar mayda motorikani rivojlantirishga katta e'tibor berib, bu so'zlarni tasdiqlaydilar. Ilmiy jihatdan isbotlanganki, miyaning mayda motorika uchun mas'ul qismi nutq markazi bilan qo'shni joylashgan, shuning uchun motorika mashqlari nutq rivojlanishiga ham turtki beradi.

Ko'zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning muhim didaktik vazifalaridan biri - sezgi asosidagi tasavvurlarni shakllantirish va ularni nutqiy ifoda bilan bog'lashdir. Predmetli-harakatli o'yinlar, ovozli belgilar va relefli materiallarga asoslangan o'yinlar orqali bolalarda predmet va hodisalarning muhim belgilari haqidagi tushunchalar shakllanadi. Bu tushunchalar keyinchalik so'z va gaplar orqali ifodalanib, semantik aniqlikni ta'minlaydi.

Ko'zi ojiz bolalar nutqini rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinlar

Teri-taktil sezgisini rivojlantiruvchi o'yinlar:	
"Barmoq izlari" o'yini	

“Barmoq izlari” o‘yini o‘qituvchiga diagnostik tahlil, individual yondashuv, samarali pedagogik jarayonni tashkil etish imkonini bersa, bolaga esa taktil sezgi, idrok, tafakkur, mayda motorika va nutq rivojlanish inkonini beradi. Bu o‘yin yakka tartibda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Maqsad: Mayda motorika va barmoqlar sezuvchanligini oshirish, fazoviy mo‘ljol olishini va sezuvchanlikni oshirish. Kerakli jihozlar: maxsus mato, turli shakldagi tugma, toshchalar va donli ekinlarning donlari, ip. O‘yinning borishi: relefli yo‘lakchalarga turli shakldagi toshchalar, ip, tugma va donlar qo‘ndirilgan. Bolalar ularni paypaslab, birin-ketin nimani ushlaganini aytadi. Taqsimchaga bercha predmetlar aralash holda qo‘ndirilishi talab etiladi. O‘yinni yakka va guruhli tarzda olib borish mumkin. Topshiriqlar: O‘yin senga yoqdimi, nima uchun? Qaysi yuzani paypaslaganingda u silliq edi? Paypaslagan predmetlardan biriga gap tuz!	
“Tuzli sehr” o‘yini “Tuzli sehr” o‘yini o‘qituvchiga bolani yakka holda kuzatish va tahlil qilish va korreksion ishning samaradorligini oshirsa, boladagi teri-taktil, motor sezgisini, sezgi, diqqat va fazoviy mo‘ljol olish jihatlarini rivojlantiradi. O‘yin yakka tartibda o‘ynash uchun mo‘ljallangan. Maqsad: teri-taktil sezgisini kuchaytirish, fazoviy mo‘ljol olishni, predmetlarning obrazini tasavvur etish va farqlash, geometrik shakllarni farqlashni rivojlantirish. Kerakli jihozlar: stol, tungi yoritkich, tuz, maxsus qum, bolalar bo‘tqasi kukuni, yoki kakao, massani solish uchun taqsimcha. O‘yinning borishi: Quruq massa taqsimchaga bir tekisda yoyib chiqiladi. (zaif ko‘ruvchi bolalarga imkon bo‘lsa, stol tagidan tungi yoritgich yoqiladi. Bola barmog‘i bilan paypaslab, turli shakl va belgilar chizishi mumkin. Topshiriq o‘qituvchi tomonidan belgilanishi yoki o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zi tanlashi ham mumkin. Topshiriqlar: Tur silliqmi yoki g‘adir-budirmi? Tuzdan qanday shakl yaratding? Bugungi o‘yindan nima olding?	
“Issiq-sovuq” o‘yini “Issiq-sovuq” o‘yini pedagogga bolaning diqqati va sezuvchanligini baholash, guruh va yakka ishlash ko‘nikmasini rivojlantirsa, bolalardagi sezuvchanlik, jismoniy faollik, ehtiyotkorlik, stresni kamaytirishga xizmat qiladi. Maqsad: teridagi harorat sezgisini rivojlantirish, predmetli tasavvurlarini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish. Jihozlar: Issiq va sovuq haroratni beradigan predmetlar.	

Metodik tavsiya: O'yin o'tkaziladigan xona ortiqcha shovqinlarsiz, diqqatni chalg'ituvchi predmetlardan holi bo'lishi lozim. Tanlanadigan material bolaning imkoniyati va yoshiga mos bo'lishi talab etiladi.

O'yinning borishi: Bola qo'lga issiq va sovuq haroratni beruvchi predmetlar beriladi. Ularni sekin paypaslab haroratini aytadi. Masalan: Issiq suv solingan rezina idish, iliq qoshiq, kaft orasida isitilgan olma. (qaynoq haroratli buyum berilmaydi).

Topshiriqlar:

Qachon issiq bo'ladi?

O'yinda kim tez topdi, nima uchun?

Qo'llarimiz sovuqsa, nima qilamiz?



Mayda qo'l motorikasini rivojlantirish:

“Qog'ozli yong'oqcha” o'yini

Maqsad: Mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, eshitish idrokini rivojlantirish, predmetli tasavvurini kengaytirish, lug'atini boyitish.

Jihozlar: Qog'oz ro'molchalar, mayda o'yinchoqlar va bir nechta savatcha yoki quticha.

O'yinning borishi: 2 yoki 3 nafar bola stol atrofiga o'tiradi.

Ularning qo'lga qog'oz bo'laklari beriladi. Ulardan qog'ozning barcha qismlarini barmoqlari yordamida turli tomonga harakatlantirib yumshatish so'raladi. So'ng, qog'oz o'rtasiga yonida turgan savatchadan bitta o'yinchoqni olib qo'yib, ustidan qog'ozni buklab, kaftlar orasida yumalatib yong'oqcha hosil qilish so'raladi. Yasalgan yong'oqchalar bolalar o'rtasida almashinadi. Qo'lga tushgan yong'oqchani bolalar ochishi va ichidagi o'yinchoqni nomlashi kerak bo'ladi. (tanlangan o'yinchoqlar ko'zi ojiz bolalar tanishi uchun kundalikda ko'p foydalangan predmetlar bilan bog'liq bo'lishi lozim).

“Nuqtalar poygasi” o'yini

Maqsad: Mayda qo'l motorika va teri-taktil sezgisini rivojlantirish, brayl alifbosidagi nuqtalar nuqtasi joylashuvini eslab qolish, nutqni faollashtirish, bolalarda tez fikrlash, diqqatni oshirish.

Kerakli jihozlar: taxta yoki plastic kolodkalar va unga shteftlar.

O'yinning borishi: Har bir bolaga bo'sh kalotka va shtiftlar beriladi. Logoped biror harfning nuqtalarini aytadi. Bolalar tezlikda kalotkada ushbu nuqtalarni hosil qilishi va bu nuqtalar qaysi harfga tegishli ekanligini topishi lozim. So'ng keying harf nuqtalari aytiladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Har bir harfni kim birinchi terib bo'lib aytsa, o'sha bolaga bitta yulduzcha beriladi. O'yin yakunida yulduzchalar hisoblanib, g'olib bola aniqlanadi.

Logoped bolalardan kalotkada qaysi so'z hosil bo'lganini so'raydi.



Bolalar soʻzni choʻzib talaffuz qilishadi va boʻgʻinlarga ajratishadi. Oʻyinning afzalligi: barmoqlar sezgisini oshirish, brayl harflarini tez oʻrganish, lugʻatini boyitish, bolada tezkorlik va yaxshi kayfiyatni hosil qilish.	
Toʻgʻri nafasni rivojlantiruvchi oʻyinlar:	
“Hidla va nimaligini ayt” oʻyini Maqsad: Chuqur nafas olishni kuchaytirish, predmetlarni hididan aniqlash sezgisini kuchaytirish. Jihozlar: Sovun, Atir, Gul, Olma, Piyoz, Non, Limon poʻsti, Qahva kukuni, Tish pastasi kabilar. Metodik tavsiya: Oʻyin oʻtkaziladigan xona ortiqcha shovqinlarsiz, diqqatni chalgʻituvchi predmetlardan holi boʻlishi lozim. Tanlanadigan material bolaning imkoniyati va yoshiga mos boʻlishi talab etiladi. Oʻyinning borishi: Logoped bolalarga yuqorida sanab oʻtilgan predmetlardan bir nechtasini stol ustiga tayyorlab oladi. Navbati bilan har birini bolalarga hidlatib, tanishtiradi. Soʻngra, istalgan bitta predmet olinib, bolalarga hidlab, nomini aniqlashga beriladi. Bolalar navbatma-navbat qoʻllariga olib chuqur hidlab koʻrishadi va anima ekanligini aytishadi. (oʻtkir kuydiruvchi va zaharli hidli predmetlardan foydalanilmaydi).	
“Choyni sovutamiz” oʻyini Maqsad: Bolalarda kuchli nafasni rivojlantirish va nafasni toʻgʻri yoʻllashga moʻljall olishga oʻrgatish. Jihozlar: Laminant qogʻozdan yasalgan issiq choy bugʻi chiqib turgan piyola. Oʻyinning borishi: Logoped: “Bolajonlar tasavvur qiling ertalabki nonushtaga qaynoq choy berildi. Kelinglar biz uni puflab sovutamiz. Dastlab piyolani kaftlarimiz orasiga olamiz. Issiq haroratni his qilamiz. Sekin yaqinlashib, ohista puflashni boshlaymiz”.- deydi. Bolalar qoʻllaridagi qogʻoz piyolalarni lablariga yaqinlashtirib, puflashni boshlashadi. Oʻyin bir necha marta takrorlanadi.	
Ovozni rivojlantiruvchi oʻyinlar:	
“Aks-sado” oʻyini Maqsad: Bolalarda baland va past ovozni rivojlantirish, jamoa boʻlib ishlashga oʻrgatish. Metodik koʻrsatma: Bolalarni baqirmasdan, tinch ohangda, kerak boʻlganda ovoznini balandlatib yoki pasaytirib gaplashishga oʻrgatish. Oʻyinning borishi: Bolalar 2 guruhga ajratiladi. Birinchi guruh oʻrmonda adashib qolgan bolalarni, ikkinchi guruh bolalari esa aks-sadoni tasvirlaydilar. Har bir guruh bolalari xonaning turli burchagiga joylashadi. Oʻrmonda adashib qolgan bolalarni tasvirllovchi guruh bolalari boshqa guruh (aks-sado guruhi)dagi bolalarning ismini baland ovozda	

aytib chaqirishadi: <Au, Malika, Au, Abdulloh, Au, Sarvar>. Aks-sado tasvirlovchi bolalar xuddi shu soʻzlarni past ovozda takrorlashadi. Soʻngra ikkala guruh ishtirokchilari oʻz oʻrinlarini almashadilar.

Metodik koʻrsatma: Bolalar oʻrtoqlarining ismini aytib chaqirganlaridan keyin bir oz sukut saqlashlari, aks-sadoga aytgan soʻzlarini takrorlash uchun ikkinchi guruhga imkon berishlari lozim.



Xulosa qilib aytganda koʻzi ojiz bolaning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda nafaqat lugʻat boyligini oshirish, balki nutqsiz muloqot vositalarini (mimika, imo-ishora, pantomimika) shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Psixogimnastika va dramatizatsiya oʻyinlari orqali amalga oshiriladigan korreksion ishlar bolalardagi muloqot toʻsiqlarini bartaraf etishga va ularning ijtimoiy integratsiyasini taʼminlashga xizmat qiladi. Umumlashtirib aytganda, didaktik jihatdan asoslangan oʻyinlar texnologiyasi koʻzi ojiz bolalarning sensor etalonlarni oʻzlashtirishi, mantiqiy tafakkuri oʻsishi va muloqot madaniyati shakllanishi uchun eng samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Значение развития тактильного восприятия для детей с нарушением зрения. Автор: Орлова Марина Викторовна. Организация: ГБОУ Школа №1748 «Вертикаль» Населенный пункт: г. Москва.
2. Sh.E.Toxtiyarova Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini inklyuziv taʼlimga tayyorlashning pedagogic-korreksion strategiyalarini takomillashtirish mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (16-b) T.2024-YIL
3. Дефектология // журнал №1, 2002 г.
4. Aripova Sh.D. Bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi: Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 11 b.
5. Ayupova M.Y. Logopediya: Darslik / Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. - Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. - B. 429-430.
6. Dangalov S.M. Koʻzi ojiz bolalarga savod oʻrgatish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2026.

Fozilova Zarnigor Jamshid qizi
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI OʻQUVCHILARNING EGILUVCHANLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY GIMNASTIKA MASHQLARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishda badiiy gimnastika mashqlarining samaradorligi oʻrganilgan. Tadqiqotda boshlangʻich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida egiluvchanlik sifatining ahamiyati, uni shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Badiiy gimnastika mashqlari bolaning tayanch-harakat apparati faoliyatini yaxshilash, mushaklar va boʻgʻimlarning harakatchanligini oshirish, qomatni toʻgʻri shakllantirish hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida baholangan. Tadqiqot davomida muntazam ravishda bajarilgan maxsus gimnastik mashqlar egiluvchanlik koʻrsatkichlarining sezilarli darajada

Odinayev Tolibjon Toyirovich Tibbiyot kolleji talabalari kasbiy motivatsiyasining kasbiy identifikatsiya rivojlanishiga ta'siri	473
Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich Talabalarda metakognitiv va metarefleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari	478
No'monov Ahror Azamat o'g'li Fanlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi zamonaviy metodik texnologiyalarning evolyutsiyasi va ularning samaradorligini pedagogik baholash	482
Karimova Shaxnoza Uktamovna Transport tizimlarini samarali rivojlantirish: Muammo va yechimlar	485
Sadullayeva Zarnigor To'lqinjonovna Talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashda ijodiy ta'lim muhiti	490
Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna Nodavlat ta'lim muassasalari talabalarida o'quv jarayoniga moslashuvni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar	494
Erimmetova Nafisa Bahromovna Kiberijtimoiylashuv sharoitida yosh ota-onalarda emotsional yolg'izlikning namoyon bo'lishi: ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik yondashuv	498
Xaytova Farida Kuchkarovna Yosh bolalar nutqi rivojlanishining o'ziga xosligi	504
Adizova Gulnavoz Farhodovna Noto'liq oila farzandlarida agressivlik, xavotir va koping strategiyalarining o'zaro aloqadorligi	508
Kalandarov Jahongir Texnikum o'quvchilarida kasbiy o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik jihatlar	511
Sobirov Umid Baxtiyorovich Tusiy nosiriddinning narkotahdidlarning insonga ta'siri borasidagi qarashlari	514
Ernazarova Dilnoza Xushvaktovna Mechanisms for preparing children with hearing impairments for inclusive education in the conditions of an educational cluster	517
Каримова Зулфия Абдурахмановна Особенности развития перцептивных навыков у детей различных категорий с особыми образовательными потребностями	520
Xaytova Farida Kuchkarovna Ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalashda senso-motor o'yinlarning ahamiyati	523
Fozilova Zarnigor Jamshid qizi Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishda badiiy gimnastika mashqlarining samaradorligi	528
Oblakulov Anvar Erkinovich Kasbiy va psixologik faoliyatda sportning o'rni	532
Axmedova Munavvar Numanjanovna Nutq rivojlanishidagi buzilishlar va bolalarda ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarining psixologik xususiyatlari	534
Valiyev Abdurafik Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida harbiy-kasbiy motivatsiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	537
Mirzayeva Sayyora Rustamovna Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash masalalari	542
Masharipova Saida Rahimovna	545

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**

Muharrir: Sh.Sh.Rustamov
Texnik muharrir: Sh.O.Dehqonboyev

Nashriyot litsenziyasi AI № 178.08.12.2010
Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 260. Hajmi 612 bet. Format A4. 2026-yil.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
«Durdona» nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko’chasi, 11-uy
“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.